

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "WEDDING/TO'Y" KONSEPTIGA OID EKVIVALENTSIZ LEKSIKA(REALIYA)LARNING TAHLILI

Nuriddinova Nodirabegim Nuriddin qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo`nalishi 2-bosqich magistranti

nuriddinovanodirabegim1923@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11211762>

Annotatsiya. Bugungi globallashuv, standartlashuv, moslashuv kuchli tus olayotgan jarayonda madaniyatlar mushtarakligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda, ayniqsa, ikki bir-biriga qardosh bo'lmagan xalqlar ingliz va o'zbek millatlari o'rtasida rivojlanib boryotgan madaniy aloqalar va ularning o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlari anglashinuvi biroz murakkabliklar tug'ildada o'zlashayotganligini misol qilib olishimiz mumkin. Bunday tushunmovchiliklarning yuzaga kelishida qisman bo'lsada hissa qo'shayotgan tushunarsiz semema(tushuncha)lar tilshunoslikda ekvivalentsiz leksika tarkibiga kiruvchi realiyalar deb nomlanadi. Ushbu tezisda ingliz va o'zbek madaniyatlarining ajralmas qismi bo'lgan "wedding/to'y" marosimiga oid bir qancha realiyalar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: xos so'zlar, realiya, lingvokulturologiya, to'y, maishiy realiyalar, chimmat, flower girl, ring bearer.

ANALYSIS OF NON-EQUIVALENT VOCABULARY REGARDING THE CONCEPT "WEDDING" IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract. In today's process of globalization, standardization, and adaptation, the commonality of cultures is clearly visible. In this case, let's take as an example that the cultural relations that are developing between two unrelated peoples, the British and the Uzbek nations, and the understanding of their unique similarities and differences, are being mastered even when some complications arise. possible Unintelligible semes (concepts), which partially contribute to the occurrence of such misunderstandings, are called realities that are part of the equivalent lexicon in linguistics. In this thesis, several realities related to the "wedding" ceremony, which is an integral part of English and Uzbek cultures, are analyzed.

Key words: special words, reality, linguistic culture, wedding, household realities, chimmat, flower girl, ring bearer.

АНАЛИЗ НЕЭКВИВАЛЕНТНОЙ ЛЕКСИКИ ПО ПОНЯТЕ «СВАДЬБА» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В современном процессе глобализации, стандартизации, адаптации отчетливо видна общность культур. В данном случае возьмем в качестве примера то, что культурные связи, складывающиеся между двумя неродственными народами, британским и узбекским народами, и понимание их уникальных сходств и различий осваиваются даже тогда, когда возможны некоторые сложности. Непонятные семы (понятия), частично способствующие возникновению таких недоразумений, называются реалиями, входящими в эквивалентную лексику в лингвистике. В данной диссертации анализируются несколько реалий, связанных со «свадебной» церемонией, которая является неотъемлемой частью английской и узбекской культур.

Ключевые слова: специальные слова, действительность, лингвокультура, свадьба, бытовые реалии, чыммат, цветочница, кольценосец.

So‘ngi yillarda madaniyatlararo verbal va noverbal kommunikatsion suhbat jarayonida “muloqotning uzulishi”, “muvaffaqiyatsizlikka uchrashi”, “noqulay aloqa”, “lisoniy to‘qnashuv”, “madaniy shok” va boshqa ko‘plab ijtimoiy madaniy noqulayliklar yuzaga kelayotganligi ko‘p kuzatilmoqda. Ushbu jarayon ikki bir- biriga mutloq begona millatlarning yaqinlashuv, do‘stona aloqalarning rivojlanishi, istiqbolli rejalarning amalga oshirilishi, har sohada keng yo‘llar ochilishiga ham ma‘nan, ham ijtimoiy- siyosiy jihatdan putur yetkazishi mumkin. Bu holat tilshunoslikda realiyalar va ular bilan bog‘liq holatlar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda bu tushuncha lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot hamda sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda faol qo‘llanilmoqda.

L.S. Barxudarov muqobilsiz leksikani uch guruhga ajratadi va (atoqli otlar, realiya va tasodifiy lakunalar) realiyalarga shunday ta‘rif beradi: “realiya- boshqa tilda so‘zlovchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo‘lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so‘zlardir”.¹

Realiya so‘zi lotincha “realia” dan olingan bo‘lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma‘nolarni anglatadi. Lingvistik atamalar lug‘atida unga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so‘zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik”²

Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki realiyalar boshqa tillarga tarjima qilishdagi o‘ziga xosliklar, ular ifodalaydigan leksik, semantik, stilistik funksiyalar bilan ajralib turadi.

Quyida ikki farqli tillar ingliz va o‘zbek madaniyatlarida “wedding/to‘y” marosimiga oid bir qancha realiyalarni tahlilga tortamiz:

Chimildiq - o‘zbek folklorshunosi A.Musaqulov “Chimildiq – kelin-kuyovni magik himoya qilish, ularning baxtli, serfarzand bo‘lishi uchun yasalgan ritual buyum”, – deya ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, kelinkuyovga chimildiq tortish jarayoni o‘ziga xos irim-sirimlar bilan ritual tarzda kechadi. Bu jarayonda qatnashayotgan yangalarning bir nikohli, uvali-juvali ekanligiga alohida e‘tibor qaratiladi. Odatda, befarzand yoki nikohi buzilgan, beva ayollarga chimildiq tortish uchun ruxsat etilmaydi. Ularning boshiga tushgan ko‘rgulik bu yosh oilaning boshiga tushishidan irim qilinadi.³

Chimmat- bu o‘zbek to‘yi kuni kelinning yuziga ro‘mol yoki yopinchiqlarining ham tagidan bosh qismga yopib qo‘yilgan *yengil ,harir, oq mato*. Kelinchakning chiroyiga ko‘z tegmasin deb yopib qo‘yiladi.

Quroq ko‘rpacha – quroq bu mayda bo‘laklardan ulab, to‘plab bezak yaratish; shu usulda yasalgan bezak,buyum ham quroq deb ataladi. Quroqdan tayyorlangan ko‘rpachalar niyat qilinib

¹ Бархударов Л. С. "Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)". -М.,1970. – С.94

² Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 1983. С.381

³ Вахшиллоевна.М.Ш, Nikohdan so‘ngi ado etiladigan urf- odatlar tasviri. Scientific progress (2021), P-1125-1126.

kelinning onasi tomonidan mustahkam tikiladi, kelin va kuyov to‘yning birinchi kuni birgalikda o‘tirishlari uchun xozirlanadi.

To‘qqiz tovoq- bu o‘zbek madaniyatida to‘ydan oldin birinchi kuyov tomonidan kelin tomonga to‘qqizta tovoqqa shirinliklar-u taomlardan hamda sarpolardan solib hadya qilib jo‘natiladi, keyin shu holat kelin tomonidan bajariladi.

Do‘ppi-avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topgan guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyim⁴ ushbu bosh kiyim azaldan to‘y kuni kuyov va erkak qarindoshlar tomonidan kiyilib, milliylikni ifodalaydi. Kuyovning do‘ppisi kelin tomonidan hadya etilib “boshing omon bo‘lsin, baxting butun bo‘lsin” degan ma’noda kiydiriladi.

Mahr- mahr nikoh ahdi yoki er- xotin bo‘lish bilan er zimmasiga yuklanadigan va xotinga berish lozim bo‘lgan moldir⁵ To‘ydan olding nikoh o‘qish jarayonida mahr qancha miqdorigi ma’lum bo‘ladi. Hayotda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatni hisobga olib, erning ayoliga mahr berishi majburiydir.

Flower girl- ingliz madaniyatida “flower girl” (gul qizaloq) deb nom olgan to‘y marosimida muhim vazifalardan birini bajaradigan shaxs mavjud bo‘lib, uning o‘z burchi bor.

O‘tmishda flower girl kelinning yonida “yoshlikdan balog‘at yoshiga o‘tib ulg‘ayganligini ifodalash uchun yurgan.”. Zamonaviy davrdagi kelib, gulli qiz yangiliklar boshlanishi ya’ni, ikki oilaning birlashishi ramzi bo‘lgan atirgul barglarini kelin va kuyov poyiga sohib, yo‘lak bo‘ylab yuradi. Atirgullardan tashqari, u qo‘lida guldasta, , sharlar yoki "Mana kelin keldi" deb yozilgan yozuvni ham ko‘tarib olib yurishi mumkin To‘y ziyofatiga kichkintoyini qo‘shish katta sharafdir. U jiyan, amakivachcha, biron bir yaqin qarindoshingiz bo‘lishi mumkin⁶.

Ring bearer- (uzuklarni ko‘tarib kelivchi yosh bola). Ingliz madaniyatida asrlar davomida “ring bearer” ning o‘rni juda ham muhim bo‘lib, marosimga o‘zgacha fayz va beg‘uborlik qo‘shib kelmoqda. Odatda, bolakayning yoshi 4 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lishi mumkin. Ring bearerning asosiy vazifasi marosim jarayonida kelin-kuyov nikoh uzuklarini cherkov o‘rtasida joylashgan yo‘lakdan yurib juftliklarga yetkazib borishdir. Bu ramziy harakat er-xotinning qasamlarini almashishi o‘rtasida sodir bo‘ladigan majburiyat va ittifoqni ifodalaydi. Bu ularning abadiy sevgisi va rishtalarini anglatadi. Uzuklarni ko‘tarishdan tashqari, uzuk ko‘taruvchi ko‘pincha yo‘l bo‘ylab gulbarglarini sohadigan gul qizning yonida yuradi yoki orqasidan ergashadi. Birgalikda ular markaziy sahna tomon yo‘l olishda ajoyib sahna yaratadilar.⁷

Xulosa qilib aytganda, inson samarali madaniyatlararo jamiyatni ta’minlash uchun turli madaniyatlarga mansub suhbatdoshlar tomonidan baham ko‘rilgan umumiy madaniy ma’noni yaratish imkoniyatini beradigan tilni bilishi foydadan holi emas. Bu esa bizga noqulay lisoniy aloqa, lisoniy to‘qnashuv, madaniy shok yuzaga kelmasligiga yordam beradi. Tilshunoslikning *lingvikulturologiya, tarjimashunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslik* kabi sohalari bugungu kunda

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati – D harfi. B-677

⁵ <https://muslimaat.uz/mahr-haqida/>

⁶ <https://medium.com/@nicolettescouteinfo/duties-of-a-flower-girl-in-a-wedding-ceremony>

⁷ <https://differencedigest.com/lifestyleliving/marriage/what-is-the-difference-between-page-boy-and-ring-bearer/>

yuqoridagi kabi realiyalarga xos tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligi uchun keng qamrovli tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

REFERENCES

1. Baxshilloevna. M.Sh, Nikohdan so`ng ado etiladigan urf- odatlar tasviri. Scientific progress (2021), P-1125-1126
2. O`zbek tilining izohli lug`ati – D harfi. B-677
3. Бархударов Л. С. "Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода)". - М:,1970. – С.94
4. Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 1983. С.381
5. <https://muslimaat.uz/mahr-haqida/>
6. <https://medium.com/@nicolettescoutureinfo/duties-of-a-flower-girl-in-a-wedding-ceremony>
7. <https://differencedigest.com/lifestyleliving/marriage/what-is-the-difference-between-page-boy-and-ring-bearer/>